

Karimova Zulfiya Abduraxmonovna

Alfraganus Universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Xo'jamuratova Xadicha

Alfraganus Universiteti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqli zaiflikning kelib chiqish sabablari, ularni oldini olish, aqli zaif bolalar qanday xususiyatga ega bo'lishi, ular bilan qanday shug'ullanish, ota onalari bilan qanday ish olib borish haqidagi ma'lumotlar yaqqol ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Intellektual nogironlik, maxsus ta'lim, terapiya, kongnitiv, genetik omillar, xromasomalar, rangli oksigen, ergoterapiya.

ОСОБЕННОСТИ И ОБРАЗОВАНИЕ ДЕТЕЙ С ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫМИ НАРУШЕНИЯМИ

Каримова Зулфия Абдурахмановна

Университет Альфраганус Преподаватель кафедры педагогики и психологии

Ходжамуратова Хадича

Университет Альфраганус Факультет педагогики

Студентка 2 курса по специальности «Специальная педагогика (логопедия)»

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются причины возникновения умственной отсталости, меры по её профилактике, особенности детей с умственной отсталостью, методы работы с ними, а также взаимодействие с их родителями.

Ключевые слова: интеллектуальная инвалидность, специальное образование, терапия, когнитивный, генетические факторы, хромосомы, цветной кислород, эрготерапия.

CHARACTERISTICS AND EDUCATION OF CHILDREN WITH INTELLECTUAL DISABILITIES

Karimova Zulfiya Abdurakhmanovna

Alfraganus University Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology

Khojamuratova Khadicha

Alfraganus University Faculty of Pedagogy

2nd-year student in the Special Pedagogy (Speech Therapy) program

Annotation: This article provides a detailed analysis of the causes of intellectual disability, preventive measures, characteristics of children with intellectual disabilities, methods of working with them, and interaction with their parents.

Keywords: intellectual disability, special education, therapy, cognitive, genetic factors, chromosomes, colored oxygen, occupational therapy.

“Aqli zaif bolalar” deganda, aqliy rivojlanishida qiyinchiliklarga duchor bo'lgan, o'z-o'zini boshqarishda va ijtimoiy moslashishda muammolar bo'lishi mumkin bo'lgan bolalar nazarda tutiladi. Bunday bolalar uchun “intellektual nogironlik” yoki “aqlan orqada qolish” kabi terminlar ishlatiladi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY**VOLUME-5, ISSUE-4**

Bu bolalar maxsus ta'limga muhtoj bo'lishi mumkin va ular turli xil qo'llab-quvvatlash va yordamga ehtiyoj sezadilar.

Aqliy nuqsonning chuqurligiga qarab oligofreniya uch darajaga ajratiladi: debillik, imbetsillik va idiotlik. Har qaysi daraja haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Debillik birmuncha yengil daraja bo'lib, uligufreniyaning eng ko'p tarqalgan turidir. Yordamchi maktabga bolalarni saralash vaqtlarida asosan shu bolalar bilan ish olib boriladi. Yordamchi maktab o'quvchilarining asosiy qismini ham debil bolalar tashkil qiladi. Bu bolalarni saralash vaqtida ham ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinadi. Buning asosiy sababi shuki, aqliy nuqson u darajada chuqur emas. Bu bolalar umumlashtira oladilar. Bog'cha yoshi davrida primitiv, sodda mazmunli o'yinlarni tashkil qila oladi. Maktab yoshi davrida esa ma'lum muayyan holatlarni baholay oladi, amaliy masalalarni yechishda to'g'ri ish tutadi. Nutqi asosan saqlangan bo'lib, mexanik xotirasi nisbatan yaxshi natijalar beradi. Bularning barchasi yordamchi maktab dasturi hajmidagi materiallarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi. Debil bolalarda yetarli harakatchanlik, ish qobiliyatlari saqlangan bo'ladi. Bu bolalarda nisbatan hissiyot-iroda sifatleri yaxshi saqlangan natijasida o'zlarini nazorat qilish imkoniyatlari mavjud. Yordamchi maktabning maxsus sharoitlari tufayli debil bolalar to'qqiz yil davomida ommaviy maktablar boshlang'ich sinf hajmidagi o'quv materiallarini egallab, ma'lum ishlab chiqarish, kasb-hunar tayyorgariigini oladilar. Qator ijobiy xislatlariga qaramay, ma'lum darajada aqliy rivojlanmaganlik bu bolalarga ham xosdir. Bu bolalarning tafakkurlari ko'rgazmali-obrazli mazmun kasb etadi. Tushunchalarning shakllanishi juda qiyin amalga oshadi. Umumlashtirish, taqqoslash jarayonlari juda zaif kechadi. O'qilgan muayyan mazmuni qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar. Fanlarni to'g'ri idrok qila turib, ularning ichki bog'lanishlarini tushunmaydilar. Bunday xislatlar debil bolalar bilan mazmunli rasmlar, izchil voqealarni tasniflash tajribalari o'tkazilganda yaqqol ko'rinadi, hisoblash malakalari ham qiyin shakllanadi. Sonlar, suratli arifmetik belgilar mohiyatini yetarli tushunib yetmaydilar. Ular sodda masalalarning shartlarini dastlabki tushuntirishlarda bila olmaydilar. Uni yechishda oldingi ishlagan yo'llarni qo'llaydilar. To'g'ri yozish malakalarini qiyinchilik bilan egallaydilar. Ularning nutqi sodda, grammatik tomoni buzilgan, tili chuchuk bo'lishi mumkin. So'zli tushuntirishlar muayyan holatlar bilan bog'liq bo'lmasa, materialni juda qiyin idrok etadilar. Debil bolalar aqlan yetarlicha rivojlanmaganligi ular shaxsining shakllanmaganligi bilan birga qo'shib keladi. Bu xislat fikr yuritish va qarashlarning mustaqil emasligida, bilimga intilishlarning yetishmasligida, tashabbuskorlikning bo'shligida, mehnat faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Hissiyot-iroda sohalari yetarli saqlangan holda, ayrim qayg'urish, xursand bo'lish vaqtlarida o'zlarini yetarli, nuqsonsiz tengdoshlaridek tuta olmaydilar. Ayrim nozik differensiyalashgan harakatlar, yuzlardagi ifodalilik yetishmaydi. Ba'zan nevrologik belgilar, tana displaziyasi, endokrin buzilishlar uchraydi. O'z vaqtidagi to'g'ri ta'lim-tarbiya, mehnat malakalarini berish, aqliy nuqsonni murakkablashtiruvchi asab-ruhiy taassurotlarni yo'q qilish orqali debil bolalarni muvaffaqiyatli ravishda hayotga moslashtirish mumkin. Bu bolalar tashabbus, mustaqillik, bir ish turidan boshqa ish turiga tez o'tish talab etilmaydigan ish jarayonlarida yetarli unum bilan mehnat qiladilar. Bu bolalardagi amaliy intilishlarning borligi kelajakda jamiyatda o'z o'rinlariga ega bo'lishlarini bilishlari asosida mehnat malakalarini egallashga yordam beradi.

Imbetsillik debil darajadan birmuncha og'ir darajadir. Aqliy nuqsonning imbetsillik darajasida oligofreniyaning o'ziga xos xususiyatlari va namoyon bo'lishi birmuncha yaqqol ko'rinadi. Imbetsillik o'rtacha darajadagi aqliy zaiflikni anglatadi. Bunday bolalarda intellektual rivojlanish me'yorida orqada bo'ladi. Ularning IQ darajasi odatda 20-50 oralig'ida bo'ladi. Imbetsil bolalarda nutq shakllanishi kechikadi yoki cheklangan bo'ladi. Ular oddiy so'z va iboralarni tushunishlari,

ammo murakkab gaplarni anglash va ifoda etishda qiynalishlari mumkin. Ular atrofdagilar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Biroq, oddiy va takroriy ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari mumkin. Doimiy e'tibor va rag'batlantirish orqali ijtimoiy muhitga moslashishlari osonlashadi. Imbetsil bolalar o'zlari mustaqil ravishda hayot kechirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular kundalik faoliyatda doimiy yordam va nazoratga muhtoj bo'ladilar. Bunday bolalar hissiyotlarini ifoda etishda soddaroq bo'lishadi va ba'zan o'z hissiyotlarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Ular tez-tez jahllari chiqishi yoki sabrsizlik ko'rsatishlari mumkin. Ularning ta'lim jarayoni maxsus dasturlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar davomida oddiy va aniq topshiriqlar berish, maqtov va rag'batlantirish kabi yondashuvlar samarali bo'ladi. Elementar hissiyotlari nisbatan saqlangan bo'lib, hamdardlik, yordam berishga intilish, rag'batlantirish va tanqidga to'g'ri munosabatda bo'lish nisbatan saqlangan.

O'z imkoniyatlariga to'g'ri baho berish, o'zlarining ruhiy va jismoniy nuqsonlari uchun qayg'urish ham uchraydi. Harakat tizimlari qo'polligi bilan ajralib turadi. Murakkablashmagan oligofreniyaning yengil va o'rta darajasidagi imbetsillar jismoniy mehnatning oddiy turlarini egallashlari mumkin. Imbetsillikning og'ir darajalarida ularni eng sodda ish turlariga ham o'rgatish mumkin emas. Imbetsillikda aqliy nuqson turli xilda namoyon bo'ladi. Imbetsillikning yengil turlarini debillikning og'ir turlaridan ajratish binnuncha qiyin diagnostik ishdir. Bunday hollarda, yaxshisi, yengil darajadagi imbetsillarni yordamchi maktablardagi diagnostik sinflarga yuborish maqsadga muvofiqdir. Imbetsil darajadagi oligofrenlarda reflekslarning buzilishlari ham ko'zga tashlanishi mumkin. Ba'zan tutqanoqlar bo'lishi mumkin. Bosh miya tuzilishining displaziyasi - mikrosefal va gidrosefal holatlar uchraydi. Ularning tana tuzilishida jismoniy buzilishlar, serebral endokrin buzilishlari ko'zga tashlanadi.

Oligofreniyaning eng og'ir darajasi idiotlik bo'lib, ular idrokklarida qo'pol rivojlanmaganlik ko'rinadi. Atrof-muhitga bo'lgan munosabati mos emas. O'z shaxsini aniq bilmaydi. Ularning tafakkuri deyarli yo'q. Ular o'zlariga qarab gapirilgan gapdan ko'ra mimika va yuz harakatlarini nisbatan ilg'ab oladilar. Idiotlar nutqi aqliy nuqson chuqurligiga bog'liq. Ulaf nutqi ma'nosiz tovushlardan, ba'zan alohida so'zlar yig'indisidan iborat bo'lishi mumkin. Hissiyotlari haddan tashqari sodda bo'lib, fiziologik xohishlar bilan bog'liqdir. Xursandchiliklari, qoniqishlarining asosida o'zlarining to'ligi, turar joyining issiqligi, patologik intilishlarini qondirish bo'lishi mumkin (jinsiy o'z-o'zini qondirish, bafmoqlarini so'rish, yeb bo'lmaydigan narsalarni chaynash). Xafagarchilliklari esa sovuq, ochlik, og'riqdan bo'lishi mumkin. O'zlarining xursandchiliklarini harakat, qichqirish, mimika harakatlari bilan namoyon etsalar, xafagarchiliklarini esa qaysarlik, o'z tana organlarini jarohatlash bilan ko'rsatishlari mumkin. Idiotlarning nisbatan yengilroq turlarida ijtimoiy hislarning saqlanganligini ko'rish mumkin. Bunday xislatlarni ularni boqadigan kishilarga birmuncha bog'lanib qolganliklarida, maqtaganida ularning xursand bo'lishlarida ko'rish mumkin. Ularning umumiy kayfiyatiari goh befarq, goh bo'shanglik va xursandchilik bilan ifodalanishi mumkin. Harakat tizimlarining haddan tashqari kambag'alligi natijasida hatto yurish va tik turish malakalari ham buzilgan bo'ladi. Faoliyatlari deyarli ko'zga tashlanmaydi. O'zlariga xizmat qilish malakalari shakllanmagan. Xulqlari asosan ularning so'z talablarini qondirish bilan bog'liq.

Aqli zaif bolalar uchun turli darajadagi ta'lim va rehabilitatsiya usullari mavjud, masalan, maxsus ta'lim, aqli zaif bolalar uchun moslashtirilgan o'quv dasturlari va metodlari, davolash va terapiya, psixologik va jismoniy yordam, shuningdek, logopediya yoki ergoterapiya. Ijtimoiy moslashuvni yaxshilash va bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish uchun yordam ko'rsatish ham shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda aqli zaif bolalarga yordam ko'rsatish ishlariga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, maxsus ta'limda qqli zaif bolalar uchun moslashtirilgan ta'lim usullari va materiallari mavjud. Bu bolalar uchun o'quv dasturlari va metodlar odatda individual tarzda ishlab chiqiladi. Ta'lim muassasalarida korreksion sinflar yoki inklyuziv sinflar tashkil etilishi, ularga aqliy zaiflikning yengil darajasidagi oquvchilar jalb qilinishi mumkin.

Aqli zaif bolalar ko'pincha hissiy jihatdan yordamga muhtoj bo'ladilar. Psixologlar va maslahatchilar bolalarga hissiy muammolarni boshqarishda yordam berishadi. Nutqiy va til rivojlanishida kechikishlarni bartaraf etish uchun logopedik korreksion ish talab qilinishi mumkin. Jismoniy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ergoterapiya va ijtimoiy maishiy moslashuv mashg'ulotlar yordam beradi. Shuningdek, qqli zaif bolalar ta'lim va tarbiyasida oilaning roli muhim ekanini ta'kidlab o'tish joiz. Oilalar maxsus ta'lim resurslari va qo'llab-quvvatlashni topishi bunday bolalarni uyda tarbiyalash va rivojlantirish uchun muhimdir. Aqli zaif bolalarga ijtimoiy moslashish va guruhlarda faol qatnashish imkoniyatlari yaratish kerak. Bu ularning o'zini ishonchli his qilishlariga va jamiyat bilan bog'lanishlariga yordam beradi.

Xulosa Shu tariqa, aqli zaif bolalarning hayotini maxsus ta'lim, yordam va qo'llab-quvvatlash bilan yaxshilash mumkin. Har bir bolaning ehtiyojlariga mos yondashuvlarni tanlash va unga individual tarzda yordam ko'rsatish juda muhimdir.

Adabiyotlar

1. Maxsus pedagogika P.M.Po'latova G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2005 21-26 bet
2. Maxsus psixologiya L.R. Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova 0 'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2013 105-107 bet
3. Isayeva M., Karimova Z.(2024). Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni bilan olib boriladigan korreksion – logopedik ish tizimi. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 3(30), 545-548
4. Z.A.Karimova / Inclusive education and its importance and characteristics / Maxsus pedagogika muammo va yechimlar/ 2023, 1-1, 160-162 p
5. Z.A.Karimova, X.A.Saydaliyeva, Aqliy zaifligi bo'lgan bolalarning bog'langan nutqini rivojlantirish / Inter education & global study/ 1 (1), ctp.111-119, 2025r
6. Zulfiya Karimova, Editorial Problems of Organizing the Innovative Activity of Preschool Education Organization Editors Under Educational Cluster Conditions. (2023). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(1), 1-10. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/97>
7. BD Khusinbaevna, Z Karimova - THEORETICAL-METHODOLOGICAL AND PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF STUTTERING, FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2024, 171-177p